FRANSUZ TILI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Jo‘rayeva Gulmira Qobulovna,
A.Avloniy PMMI Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti
Tel: +998-477-34-35
E-mail: gulmira773435@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada xalqaro solishtirma-qiyosiy tadqiqotlar hamda institutsional islohotlar tajribasi asosida fransuz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va ularni tayyorlash tizimida pedagogik innovatsiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy yondashuvlari tadqiq etilgan. Malaka oshirish tizimidagi (EAFC, Canopé, PNF kabi) zamonaviy modellar, R.Quivy va L.Van Campenhoudtning ijtimoiy fanlardagi 7 bosqichli tadqiqot metodologiyasi hamda QQOQCP tahlil matritsasi asosida har taraflama tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy avtonomiyasi va innovatsion samaradorligi ko‘rsatkichlarini ifodalovchi matematik-pedagogik model ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik innovatsiya, fransuz tili o‘qituvchilari, xalqaro tadqiqotlar, byurokratiya nazariyasi, uzluksiz ta’lim, kasbiy kompetensiya, PNF, EAFC, QQOQCP metodi, pedagogik avtonomiya.*

Аннотация: *В статье на основе международных сравнительных исследований и опыта институциональных реформ исследуются теоретические и практические подходы к внедрению педагогических инноваций в систему подготовки и повышения квалификации учителей французского языка. На основе социально-педагогического анализа рассмотрены бюрократические барьеры, современные модели непрерывного образования (EAFC, Canopé, PNF), а также методология Р. Квиви и Л. Ван Кампенхаудта и аналитическая матрица QQOQCP. Разработана математико-педагогическая модель, отражающая связь между автономией учителя и эффективностью инноваций.*

Ключевые слова: *педагогическая инновация, учителя французского языка, международные исследования, теория бюрократии, непрерывное образование, профессиональная компетенция, метод QQOQCP, педагогическая автономия.*

Инновации в подготовке учителей французского языка: международный опыт и современные

Жураева Гульмира Кобуловна,
Методист отдела методического обслуживания Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

Pedagogical innovations in french language teacher training: international experience and modern approaches

Jurayeva Gulmira Qobulovna,
Methodologist, Department of Methodological Services, National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Abstract: *Based on international comparative research and the experience of institutional reforms, the article explores theoretical and practical approaches to integrating pedagogical innovations into the French language teacher training and continuous professional development system. It analyzes bureaucratic barriers, modern continuous training models (EAFC, Canopé, PNF), and structural gaps using the 7-step research framework of R. Quivy & L. Van Campenhoudt and the QQOQCP analytical matrix. Furthermore, a mathematical-pedagogical model quantifying the relationship between teacher autonomy and innovation efficiency is proposed.*

Keywords: *pedagogical innovation, French language teachers, international research, bureaucracy theory, continuous education, professional competence, QQOQCP method, teacher autonomy.*

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalarning shiddatli integratsiyasi hamda zamonaviy pedagogik paradigmalar ta’lim makonining mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday kompleks transformatsiya sharoitida xorijiy tillarni, xususan, fransuz tilini **(FLE – Français Langue Étrangère**) o‘qitish sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz takomillashtirish hamda ta’lim amaliyotiga innovatsion mexanizmlarni tizimli tatbiq etish davlat ta’lim siyosatining strategik ustuvorligiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Konsepsiyada belgilanganidek, “Pedagog xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg‘or va innovatsion usullarni keng joriy etish orqali ularning kasbiy mahorati va malaka darajasini muttasil oshirib borish mexanizmlarini yaratish” an’anaviy metodik instrumentariylarni tubdan rekonseptuallashtirish zaruratini taqozo etmoqda [1].

Mazkur Konsepsiyada O‘zbekistonning PISA kabi xalqaro baholash dasturlari reytingida ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishi hamda “ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy va innovatsion pedagogik shakllar, o‘qitish usullarini keng joriy etish” ustuvor vazifa qilib belgilangan. Biroq xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimidagi islohotlar va normativ-huquqiy hujjatlar muntazam yangilanib tursa-da, ularning real sinf xonasidagi amaliy jarayonlarga ko‘chishi hamda amalda aks etishi kutilganidan sekin kechmoqda.

O‘qituvchilarning real kasbiy ehtiyojlari va markazlashtirilgan malaka oshirish dasturlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etishning asosiy omilidir. Biroq amaliyotda malaka oshirish kurslari ko‘pincha mavhum-nazariy tushunchalarga haddan tashqari ur g‘u berishi natijasida pedagogning sinfiy sharoitdagi amaliy-metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish ikkinchi darajali masalaga aylanib qolmoqda.

Agar malaka oshirish tizimlarida “yuqoridan pastga” *(top-down)* yo‘naltirilgan institutsional ko‘rsatmalar *(injonctions institutionnelles)* hamda ma’muriy-byurokratik g‘ovlar ustuvorlik qilsa, o‘qituvchining metodik erkinligi va ijodiy tashabbuskorligiga ta’sir etuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda pedagoglarning zimmasiga ta’limni inklyuziv qilish, madaniyatlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish va fuqarolik masalalarini integratsiya qilish kabi tizimli talablar yuklanayotgan bir paytda, ularning zaruriy metodik va resursli ta’minot bilan mustahkamlanmagani ta’lim amaliyotida “paradoksal ko‘rsatmalar” *(injonctions paradoxales)* holatini keltirib chiqarish ehtimoli yuzaga keltiradi.

Tizimdagi ushbu chuqur uzilish pedagogik innovatsiyalarning samarasizligiga hamda o'qituvchilarda kasbiy frustratsiya (tushkunlik) ning ortishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash hamda ularning kasbiy mahoratini oshirish jarayonida xalqaro solishtirma-qiyosiy pedagogika metodologiyasidan unumli foydalanish, institutsional-byurokratik to'siqlarni minimallashtirish va pedagoglarning kasbiy avtonomiyasini ta'minlovchi moslashuvchan innovatsion modellarni ishlab chiqish ustuvor ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Nazariy-metodologik asoslar va tadqiqot bosqichlari

Tadqiqot jarayonini tizimli tashkil etishda L.Quivy va L.Van Campenhoudt tomonidan ishlab chiqilgan 7 bosqichli modelga tayanildi [2]:

Tadqiqot doirasida ma'lumotlarni to'plash va ilmiy muammoni har taraflama qamrab olish uchun **QQOQCP — Qui, Quoi, Où, Quand, Comment, Pourquoi** *(Nima? Kim? Qayerda? Qachon? Qanday? Nega?)* tahlil matritsasi qo'llanildi ***(1-jadval)***.

Xalqaro tajriba, xususan, **Fransiyaning EAFC – *Écoles Académiques de Formation Continue*** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fransuz tili o'qituvchilarini malakasini oshirishda nazariya va amaliyot o'rtasidagi nomutanosiblik asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Markazlashtirilgan an'anaviy model va innovatsion kontekstual model o'rtasidagi qiyosiy tahlil 2-jadvalda keltirilgan[3].

Institutsional direktivalarning pedagogik avtonomiya va innovatsiyalarga ta'siri quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda namoyon bo'ladi:



1-rasm. Tadqiqotning metodologik bosqichlari strukturasi

1-jadval.

Problematika bo‘yicha QQOQCP tahlil

Savol (QQOQCP)	Metodologik talqin va mazmuni
Quoi? *(Nima?)*	Pedagogik innovatsiyalarning uzluksiz ta’lim va o‘qituvchi amaliyotidagi o‘rni hamda institutsional funksiyalar va real ehtiyojlar o‘rtasidagi uzilish
Qui? *(Kim?)*	Fransuz tili (FLE) o‘qituvchilari, ta’lim siyosatini belgilovchi ma’murlar va malaka oshirish markazlari metodistlari
Où? *(Qayerda?)*	Xalqaro qiyosiy maydonda: Fransiya va Osiyo (O‘zbekiston, Xitoy) ta’lim muassasalari va malaka oshirish institutlarida
Quand? *(Qachon?)*	So‘nggi yillarda *(2020–2026-yillar)* xavfsizlik, inklyuzivlik va raqamlashtirish islohotlari avj olgan bosqichda
Comment? *(Qanday?)*	Onlayn so‘rovnomalar, ma’lumotlarni miqdoriy va sifat tahlil qilish hamda yo‘naltirilgan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazish orqali
Pourquoi? *(Nega?)*	O‘qituvchilarning kasbiy ehtiyojlariga mos keladigan, byurokratik to‘siqlardan holi va real sinfiy sharoitga mos innovatsion modellarni shakllantirish uchun

2-jadval.

Fransuz tili o‘qituvchilarining uzluksiz malaka oshirish tizimidagi modellarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar va parametrlar	Markazlashtirilgan byurokratik model (An’anaviy)	Innovatsion va kontekstual model (Lokal)
Dasturning shakllanishi	Yuqoridan pastga (*Top-down*) ko‘rsatmalar va normativlar	O‘qituvchining real ehtiyojlari va sinf sharoitiga moslangan (*Bottom-up*)
Yo‘naltirilganlik	Nazariy va ma’muriy topshiriqlar, standart nazorat	Amaliy-pedagogik, kommunikativ va raqamli innovatsiyalar
Asosiy to‘siqlar	Sanoqsiz ma’muriy yuklama, vaqt yetishmasligi, qoliplashtirish	Resurslar cheklangani, lokal darajadagi metodik qo‘llab-quvvatlov yetishmasligi
O‘qituvchi avtonomiyasi	Cheklangan, qoidalarga rioya qilish birlamchi	Yuqori, metodik tajriba va erkin eksperimentallik
O‘zlashtirish samaradorligi	Past (qog‘ozbozlik va rasmi-yatchilik ustun)	Yuqori (sinfda real natijalarga olib keladi)

1. Institutsional direktivalar va normativ talablar:

Asosiy mazmuni: Ta’lim vazirligi, hududiy boshqarmalar yoki ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan belgilanadigan majburiy qarorlar, davlat ta’lim standartlari hamda rasmiy yo‘riqnomalar.

Mantiqiy ta’siri: Bu bosqich ta’lim tizimida tizimlilik va birxillikni ta’minlash uchun xizmat qiladi. Biroq, ko‘pincha bu direktivalar sinfxonaning real ehtiyojlari va o‘qituvchilarning amaliy tajribasini hisobga olmagan holda, ma’muriy tartibda qabul qilinadi.

2. Malaka oshirish dasturlari (Nazariy standartlar):

Asosiy mazmuni: Institutsional direktivalarni o'qituvchilar faoliyatiga singdirish uchun tashkil etiladigan o'quv kurslari, treninglar va nazariy yo'riqnomalar.

Mantiqiy ta'siri: Rasmiy direktivalar "nazariy standartlar" ko'rinishiga keltiriladi. O'qituvchilarga darsni qanday tashkil etish bo'yicha qat'iy va bir xil nazariy qoliplar beriladi. Natijada, hatto yangilik yoki innovatsiya sifatida taqdim etilgan usullar ham qat'iy qoidalarga va majburiy standartlarga aylanadi.

3. Amaliy jarayonga tatbiq etishdagi byurokratik g'ovlar:

Asosiy mazmuni: Nazariy standartlar va direktivalar ijrosini nazorat qilish mexanizmlari – hisobotbozlik, qog'ozbozlik, uzluksiz tekshiruvlar hamda rasmiyatchilik.

Mantiqiy ta'siri: O'qituvchi nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda byurokratik to'siqlarga duch keladi. Uning vaqti va energiyasi dars sifatini oshirish hamda o'quvchilar bilan individual ishlashga emas, balki direktivalar ijrosini isbotlovchi hisobotlar va hujjatlarni tayyorlashga sarflanadi.

4. O'qituvchining pedagogik erkinligi va innovatsiya:

Asosiy mazmuni: Mantiqiy zanjirning yakuniy natijasi – o'qituvchining dars jarayonida erkin qaror qabul qilish darajasi hamda yangiliklarni joriy etish imkoniyati.

Mantiqiy ta'siri:

a) Cheklov ssenariysi: Byurokratik g'ovlar va qat'iy direktivalar o'qituvchining pedagogik avtonomiyasini (erkinligini) bo'g'adi. O'qituvchi tavakkal qilishdan va ijodkorlikdan qochib, shunchaki ko'rsatmalarni bajaruvchi "rasmiy ijrochi"ga aylanadi.

b) Rivojlanish ssenariysi: Agar institutsional direktivalar qat'iy nazoratga emas, balki o'qituvchiga yo'nalish berish va erkinlik yaratishga qaratilsa, byurokratik g'ovlar kamayadi va sinfxonada haqiqiy pedagogik innovatsiyalar yuzaga keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun tizim uch bosqichli uzluksiz strukturaga ega bo'lishi lozim:

1. Diagnostika va ehtiyoj *(Bottom-up yondashuv)*: Sinfiy sharoit va o'qituvchilarning amaliy ehtiyojlarini atroflicha aniqlash hamda dasturlarni ushbu talablarga moslashtirish;

2. Modulli zamonaviy ta'lim: Madaniyatlararo muloqot, raqamli va interaktiv metodlarni malaka oshirish mazmuniga tizimli integratsiya qilish;

3. Refleksiv amaliyot: O'qituvchilarning kasbiy hamkorligini rivojlantirish va ularning innovatsion tajribalarini tahlil qilib borish orqali kasbiy avtonomiyani ta'minlash.

Xalqaro qiyosiy pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Fransiyadagi FLE yondashuvlarida o'qituvchi asosan fasilitator va interaktiv muloqot tashkilotchisi sifatida namoyon bo'lsa, sharqiy ta'lim an'analarida o'qituvchi bilimlar manbai va axloqiy namuna sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, malaka oshirish tizimiga innovatsiyalarni kirishda lingvodidaktik va madaniyatlararo (interculturel) yondashuvlarni milliy va hududiy xususiyatlar bilan uy g'unlashtirish zarur [4].

Xalqaro tadqiqotlar tahlili ko'rsatadiki, Fransiya hamda sharqiy ta'lim tizimlarida o'qituvchi figurasi va unga qo'yiladigan ijtimoiy-pedagogik talablar turlicha shakllangan. G'arb tajribasida *(masalan, FLE – Français Langue Étrangère yo'nalishida)* o'qituvchi asosan fasilitator va interaktiv muloqot tashkilotchisi bo'lsa, sharqiy an'analarda o'qituvchi axloqiy namuna va bilimlar manbai sifatida ko'riladi. Shu sababli, fransuz tili o'qituvchilarining malakasini oshirishda lingvodidaktik va madaniyatlararo (interculturel) yondashuvlarni uy g'unlashtirish muhimdir. Innovatsiyani

ta’lim tizimiga joriy etishda quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Hiyerarxik ehtiyojlarni yig‘ish tizimini isloh qilish: O‘qituvchilarning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini yuqoridan belgilash emas, balki real sinfiy diagnostika va o‘qituvchilarning o‘z ehtiyojlari asosida shakllantirish.

Pedagogik innovatsiyaga avtonomiya va erkinlik berish: O‘qituvchilarga tajriba-sinov darslarini o‘tkazish, mualliflik dasturlarini qo‘llash va ta’lim texnologiyalaridan erkin foydalanish uchun institutsional imkoniyatlar (degerativ mexanizmlar) yaratish.

Byurokratik yuklamani kamaytirish: Malaka oshirish tizimini ortiqcha hisobotbozlik va rasmiy nazorat mexanizmlaridan xalos etib, uni bevosita o‘quvchilarning lingvistik va madaniyatlararo kompetensiyalarini o‘stirishga yo‘naltirish [5].

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy-metodik tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Ehtiyojlarni aniqlash mexanizmini isloh qilish *(Bottom-up yondashuv)*: O‘qituvchilarning malaka oshirish kurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini yuqoridan belgilangan ma’muriy ko‘rsatmalar o‘rniga, real sinfiy diagnostika hamda o‘qituvchilarning amaliy talablari asosida shakllantirish.

2. Pedagogik avtonomiya va erkinlikni ta’minlash: O‘qituvchilarga mualliflik dasturlarini qo‘llash, tajriba-sinov darslarini o‘tkazish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan (MOOC, interaktiv platformalar) erkin foydalanish uchun institutsional va huquqiy imkoniyatlar yaratish.

3. Byurokratik yuklamani desentralizatsiya qilish: Malaka oshirish va ta’lim sifatini baholash jarayonlarini ortiqcha hisobotbozlikdan xalos etib, e’tiborni o‘quvchilarning lingvistik va madaniyatlararo kompetensiyalarini o‘stirishga qaratish.

Fransuz tilini (FLE) o‘qitishda amaliy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion didaktik instrumentariysi

Yevropa Kengashining “Umumyevropa til kompetensiyalari mezonlari” (CEFRL) hamda zamonaviy didaktik yondashuvlarga *(approche communicative va approche actionnelle)* muvofiq, fransuz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda bilimlarni shunchaki nazariy o‘zlashtirishdan amaliy-kommunikativ va faoliyatli kompetensiyalarga o‘tish ustuvor hisoblanadi [6].

O‘qituvchining amaliy-metodik tayyorgarligini va o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasini kompleks rivojlantirishda quyidagi **innovatsion didaktik mexanizmlar** markaziy o‘rin egallaydi:

Vazifaga asoslangan ta’lim (*Approche actionnelle*): Til o‘rganuvchini passiv tinglovchi emas, balki muayyan ijtimoiy va kasbiy vazifalarni bajaruvchi faol subyekt sifatida talqin etadi. O‘qituvchilarni tayyorlash kurslarida loyiha taqdimotlari, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va jamoaviy muammolarni hal etish topshiriqlarini qo‘llash ularning nutqiy va metodik faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Mediatsiya faoliyatlari *(Médiation)*: CECRL ning yangilangan tamoyillariga muvofiq, mediatsiya axborotni qayta ishlash, tushuntirish, murakkab mazmunni soddalashtirish va madaniyatlararo vositachilik qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Fransuz tili darslarida matnlarni umumlashtirish, videomateriallar mazmunini qayta ifodalash hamda madaniyatlararo ziddiyatli vaziyatlarni sharhlash o‘qituvchi va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash hamda muloqot moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Interaktiv va o‘yin texnologiyalari (*Jeux de rôles et simulations*): Nutqiy qo‘rquv va psixologik g‘ovlarni bartaraf etishda didaktik o‘yinlar (masalan, “À l’hôtel”, “Chez le médecin”, “Au restaurant”) va raqamli simulyatsiyalar tabiiy muloqot muhitini yaratadi. H.Silva

konsepsiyasiga ko‘ra, o‘yin jarayonida til o‘rganish obyekti emas, balki kommunikativ maqsadga erishish vositasiga aylanadi [7].

Autentik materiallar va raqamli resurslar integratsiyasi: Darslik cheklovlaridan chiqib, real gazeta-jurnal maqolalari, podkastlar, videoroliklar va ijtimoiy tarmoq materiallaridan foydalanish bo‘lajak va amaldagi o‘qituvchilarni zamonaviy fransuz tilining leksik-uslubiy va madaniy xususiyatlari bilan bevosita tanishtiradi.

Shunday qilib, xalqaro tadqiqotlar va institutsional talablarni pedagogik amaliyot bilan sintez qilish fransuz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va natijador ta’lim muhitini kafolatlaydi

Xalqaro qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar va ma’muriy-byurokratik model tahlillari shuni ko‘rsatadiki, fransuz tili o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini innovatsion transformatsiyalash shunchaki texnik yoki raqamli vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. U ta’lim tizimidagi institutsional va ma’muriy yondashuvlarni tubdan o‘zgartirishni, o‘qituvchining kasbiy avtonomiyasini oshirishni hamda malaka oshirish dasturlarini real amaliyotga maxsus moslashtirishni talab etadi. Taqdim etilgan metodologik bosqichlar, QQOQCP tahlil matritsasi hamda samaradorlik formulasi milliy pedagogik mahorat institutlari va oliy ta’lim muassasalarida fransuz tili hamda boshqa xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Arendt H. Du mensonge à la violence: Essais de politique contemporaine. – Paris: Calmann-Lévy, 1972.

3. Bellassen J. L’innovation dans l’enseignement des langues: Enjeux et perspectives. – Paris: L’Harmattan, 2015.

4. Crozier M. Le Phénomène bureaucratique. – Paris: Éditions du Seuil, 1971.

5. Glebova L. S. va boshq. Педагогический энциклопедический словарь. – Москва: Большая Российская энциклопедия, 2003. – С. 146.

6. Malet R. Éducation comparée et formation des enseignants: Enjeux interculturels et internationaux. – Bordeaux: LACES, 2021.

7. Mauve S. Étude comparative France–Chine: L’innovation pédagogique au sein des politiques de formation des enseignants: Thèse de doctorat en sciences de l’éducation. – Bordeaux: Université de Bordeaux, 2025. – 355 p.

8. Merton R. K. Bureaucratic Structure and Personality // Social Forces. – 1952. – P. 195–212.

9. Quivy R., Van Campenhoudt L. Manuel de recherche en sciences sociales. – Paris: Dunod, 2017.

10. Rayou P., Ria L. Former les enseignants: Réformes, acteurs et pratiques. – Paris: ESF Éditeur, 2021.